# III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, viloyatda 2026-yil yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)larining umumiy hajmi 5 820,1 mlrd.so‘mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan 106,0 foizni, shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari hajmi 429,2 mlrd.so‘mni (140,3 foiz), yalpi chorvachilik mahsulotlari hajmi 5 160,6 mlrd.so‘mni (103,4 foiz), qishloq xo‘jaligida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 50,4 mlrd. so‘mni (104,9 foiz), baliqchilik xo‘jaliklarida 28,5 mlrd. so‘mni (105,6 foiz), ovchilik xo‘jaligida 0,1 mlrd.so‘mni (38,6 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaliklarida 70,7 mlrd.so‘mni (106,4 foiz) tashkil qildi.



**5 820,2** — **Buxoro viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd. so‘m**

01 — **5 720,9** — **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

02 — **70,7** — **O‘rmon xo‘jaligi**

03 — **28,5** — **Baliqchilik xo‘jaligi**

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmatlar) hajmining taqsimlanishi,** *foizda*
*(2026-yil yanvar-mart)*

| | *Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlar hajmi* | | *Aholi jon boshiga, (ming so'm)* |
|---|---|---|---|
| | *mlrd. so'm* | *2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, o'sish sur'ati % da* | |
| **Buxoro viloyati** | **5 820,1** | **106,0** | **2 758,8** |
| Buxoro sh. | 114,8 | 108,8 | 376,2 |
| Kogon sh. | 57,5 | 3,0 m. | 868,3 |
| *tumanlar* | | | |
| Olot | 428,3 | 105,1 | 3 985,9 |
| Buxoro | 681,2 | 104,2 | 3 675,0 |
| Vobkent | 445,3 | 106,1 | 2 885,4 |
| G'ijduvon | 536,1 | 105,0 | 1 612,8 |
| Kogon | 517,9 | 102,8 | 5 874,5 |
| Qorako'l | 495,6 | 103,6 | 2 807,1 |
| Qorovulbozor | 203,9 | 112,0 | 9 857,0 |
| Peshku | 414,7 | 106,9 | 3 051,0 |
| Romitan | 580,8 | 105,8 | 3 738,1 |
| Jondor | 763,6 | 106,0 | 3 974,3 |
| Shofirkon | 580,4 | 106,0 | 3 057,8 |

**2026-yil yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘sish sur’atlari**




Xususan, yuqori o‘sish sur’atlari Kogon shahrida (3,0 marta ko‘p), Qorovulbozor (112,0 foiz) tumanlari, Buxoro shahri (108,8 foiz), Peshku (106,9 foiz) tumanida kuzatildi. Kogon (102,8 foiz) va Qorako‘l tumanlarida (103,6 foiz) esa aksincha past sur’atlar kuzatildi.

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, *% da*




Hududlar bo‘yicha tahlil qilinganda eng yuqori ulush Jondor (13,1 %), Buxoro (11,7 %), Romitan (10,0 %) va Shofirkon (10,0 %) tumanlarida kuzatildi. Aksincha kam ulushga ega hududlar Kogon shahar (1,0 %), Buxoro shahar (2,0 %), Qorovulbozor (3,5 %) va Peshku (7,1 %) tumanlariga kuzatildi.

### Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2026-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi 2025-yil mos davriga nisbatan 105,8 foizni, shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari 140,3 foizni va chorvachilik mahsulotlari 103,4 foizni tashkil qildi.

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi,** *foizda*




**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi,** *foizda*



2026-yil yanvar-mart oylarida 5 589,8 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 429,2 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 7,7 foizi dehqonchilik, 5 160,6 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 92,3 foizi chorvachilik sohasiga to‘g‘ri keladi.

2026-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda Qorovulbozor, Romitan tumanlari va Buxoro shahrida asosan dehqonchilik sohasining ancha rivojlanganligini ko‘rsatdi. Ushbu tumanlarda jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 31,5 – 13,6 foizini dehqonchilik mahsulotlari tashkil etadi. Shuningdek, Kogon shahri, Kogon va Shofirkon tumanlarida asosan chorvachilik sohasining ancha rivojlanganligini kuzatish mumkin. Ushbu hududlarda jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 99,9 – 96,0 foizini chorvachilik mahsulotlari tashkil etadi.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi,** *foizda*




Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 78,1 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 9,8 foizi fermer xo‘jaliklariga, 12,1 foizi qishloq xo‘jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi hududlar kesimida,** *foizda*




Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

2026-yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Jondor (19,0 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Shofirkon (92,0 foizi) tumanlari va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Kogon shahri (76,9 foizi)da qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich esa Kogon shahrida (1,6 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Kogon shahrida (21,5 foizi) hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Shofirkon (3,4 foizi) tumanida qayd etildi.



**Dehqonchilik**

2026-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarning hajmi 429,2 mlrd.so‘mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan 140,3 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 7,7 foizni tashkil kildi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining salmog‘i yuqori bo‘lmoqda, jumladan jami yetishtirilgan sabzavotning 16,2 foizi ular hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Hosilni yig‘ib olish**



2026-yilning yanvar-mart oylarida sabzavot 11 943,2 tonna (140,3 foizga ko‘p) yig‘ib olindi.

**Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jalik toifalarining ulushi, % hisobida**



**2026-yilning yanvar-mart oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| | *Fermer xo‘jaliklari* | | *Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari* | | *Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | *ming tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *ming tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *ming tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* |
| Sabzavotlar | 1,9 | 117,0 | 1,9 | 111,3 | 8,1 | 157,7 |

**2026-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**



## Chorvachilik



2026-yil yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 160,6 mlrd.so‘mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan 103,4 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 92,3 foizni tashkil etdi.

2026-yil yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 55 812,9 tonna go‘sht (2025-yil yanvar-martga nisbatan 3,0 foizga ko‘p), 227,9 ming tonna sut (4,1 foizga ko‘p), 99,2 mln.dona tuxum (8,5 foizga ko‘p), 190,4 tonna jun (19,0 foizga ko‘p), 178,0 ming dona qorako‘l teri (o‘tgan yilga nisbatan 3,8 foizga ko‘p) ishlab chiqarildi.

**2026-yil yanvar-mart oylarida xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| | *Barcha toifadagi xo‘jaliklar* | | *shu jumladan:* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *fermer xo‘jaliklari* | | *dehqon va tomorqa xo‘jaliklari* | | *qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
| | *miq-dori* | *o‘sish sur’ati, foiz* | *miq-dori* | *o‘sish sur’ati, foiz* | *miq-dori* | *o‘sish sur’ati, foiz* | *miq-dori* | *o‘sish sur’ati, foiz* |
| Go‘sht tirik vaznda, *tonna* | 55 812,9 | 103,0 | 3 932,3 | 107,1 | 47 187,0 | 99,2 | 4 693,6 | 159,3 |
| Sut, *tonna* | 227 909,8 | 104,1 | 19 671,1 | 107,8 | 203 587,0 | 103,4 | 4 651,7 | 120,6 |
| Tuxum, *ming dona* | 99 165,6 | 108,5 | 23 010,2 | 100,8 | 36 203,9 | 102,5 | 39 951,6 | 120,2 |
| Jun, *tonna* | 190,4 | 119,0 | 44,6 | 106,2 | 136,1 | 122,6 | 9,7 | 138,7 |
| Qorako‘l teri, *dona* | 178 030 | 103,8 | 29 972 | 104,7 | 141 276 | 102,2 | 6 782 | 148,6 |

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go‘shtning umumiy hajmidan 84,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 89,3 foizi, tuxumning 36,5 foizi, junning 71,5 foizi, qorako‘l terining 79,4 foizi ham dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keladi.

**Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi**




**2026-yil 1-aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | *Barcha toifadagi xo'jaliklar* | | *shu jumladan:* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *fermer xo'jaliklari* | | *dehqon va tomorqa xo'jaliklari* | | *Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
| | *ming bosh* | *o'sish sur'ati, foiz* | *ming bosh* | *o'sish sur'ati, foiz* | *ming bosh* | *o'sish sur'ati, foiz* | *ming bosh* | *o'sish sur'ati, foiz* |
| Yirik shoxli qoramollar | 1 408,8 | 102,6 | 117,8 | 103,1 | 1 259,1 | 102,0 | 31,9 | 130,6 |
| *shu shumladan,* sigirlar | 461,7 | 103,3 | 41,2 | 102,4 | 410,2 | 102,9 | 10,3 | 129,5 |
| Qo'y va echkilar | 2 547,5 | 103,1 | 426,4 | 105,6 | 1 925,1 | 101,9 | 196,0 | 109,2 |
| Parrandalar | 7 989,9 | 106,8 | 2 035,0 | 106,0 | 2 730,6 | 101,7 | 3 224,3 | 112,0 |

**Ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini hududlar kesimida taqsimlanishi**

**Go‘sht** *(ming t.)*




**Sut** *(ming t.)*




**Tuxum** *(mln.dona)*




**Ovlangan baliq** *(tonna)*



**2026-yil 1-aprel holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | *ming bosh* | *o'sish sur'ati, foiz* |
|---|---|---|
| **Yirik shoxli qoramol** | **1 408,8** | **102,6** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 117,8 | 103,1 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | 1 259,1 | 102,0 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 31,9 | 130,6 |
| **shundan sigirlar** | **461,7** | **103,3** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 41,2 | 102,4 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | 410,2 | 102,9 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 10,3 | 129,5 |
| **Qo'y va echkilar** | **2 547,5** | **103,1** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 426,4 | 105,6 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | 1 925,1 | 101,9 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 196,0 | 109,2 |
| **Otlar** *(bosh)* | **8 650** | **109,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 3 898 | 113,8 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | 3 140 | 105,3 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1 612 | 105,4 |
| **Parrandalar** | **7 989,9** | **106,8** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 2 035,0 | 106,0 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | 2 730,6 | 101,7 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 3 224,3 | 112,0 |

**2026-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari**

| | *Miqdori* | *o'sish sur'ati, foiz* |
|---|---|---|
| **Go'sht (tirik vaznda),** *ming t.* | **55,8** | **103,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 3,9 | 107,1 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | 47,2 | 99,2 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 4,7 | 159,3 |
| **Sut, *ming t.*** | **227,9** | **104,1** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 19,7 | 107,8 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | 203,6 | 103,4 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 4,6 | 120,6 |
| **Tuxum, *mln. dona*** | **99,2** | **108,5** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 23,0 | 100,8 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | 36,2 | 102,5 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 40,0 | 120,2 |

**Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni**

2026-yil 1-aprel holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 408,8 ming boshni, shu jumladan sigirlar 461,7 ming boshni, qo‘y va echkilar 2 547,5 ming boshni, ot 8 650 boshni, parrandalar 7 989,9 ming boshni tashkil etdi. 2025-yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 36,0 ming boshga (2,6 foizga), shu jumladan sigirlar 14,9 ming boshga (3,3 foizga), qo‘y va echkilar 75,8 ming boshga (3,1 foizga), otlar 715 boshga (9,0 foizga), parrandalar 507,7 ming boshga (6,8 foizga) ko‘paydi.

**Xo‘jalik toifalarining chorva mollari**
**va parrandalar bosh sonidagi ulushi,** *foizda*



2026-yil 1-aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollar 8,4 foizi fermer xo‘jaliklariga 89,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 2,2 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 16,7 foizi fermer xo‘jaliklariga, 75,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 7,7 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 25,5 foizi fermer xo‘jaliklariga, 34,1 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 40,4 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2026– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 408,8 mingtaga yetdi.

2026– yil 1- aprel holati bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 36,0 mingtaga (2,6 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar









2026– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 89,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Yirik shoxli qoramollar




| **Yuqori ulushga ega tumanlar** | |
|---|---|
| G‘ijduvon tumani | **12,0 %** |
| Qorako‘l tumani | **11,2 %** |
| Shofirkon tumani | **11,3 %** |
| Jondor tumani | **10,0 %** |

| **Past ulushga ega hududlar** | |
|---|---|
| Kogon shahar | **0,1 %** |
| Buxoro shahar | **0,5 %** |
| Qorovulbozor tumani | **1,7 %** |
| Kogon tumani | **6,4 %** |

2026– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 461,7 mingtaga yetdi.

2026– yil 1-aprel holati bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 14,9 mingtaga (3,3 %) ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2026– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 88,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



## Sigirlar bosh soni




**Yuqori ulushga ega tumanlar**

| | |
|---|---|
| Qorako‘l tumani | **14,0 %** |
| G‘ijduvon tumani | **12,0 %** |
| Jondor tumani | **10,4 %** |
| Shofirkon tumani | **9,6 %** |

**Past ulushga ega hududlar**

| | |
|---|---|
| Kogon shahar | **0,1 %** |
| Buxoro shahar | **0,5 %** |
| Qorovulbozor tumani | **2,1 %** |
| Kogon tumani | **7,4 %** |

2026– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 547,5 mingtaga yetdi.

2026– yil 1- aprel holati bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 75,8 mingtaga (3,1 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Jami bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2026– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 75,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



## Qo‘y va echkilar

**bosh soni, ming bosh** | **Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi**




**Yuqori ulushga ega tumanlar**

| | |
|---|---|
| Jondor tumani | **14,5 %** |
| G‘ijduvon tumani | **12,6 %** |
| Qorako‘l tumani | **11,8 %** |
| Peshku tumani | **10,2 %** |

**Past ulushga ega hududlar**

| | |
|---|---|
| **Kogon shahar** | **0,2 %** |
| **Buxoro shahar** | **0,8 %** |
| **Kogon tumani** | **3,6 %** |
| **Vobkent tumani** | **5,0 %** |

2026– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 8 650 taga yetdi.

2026– yil 1- aprel holati bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 715 taga (9,0 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Jami bosh soninig xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**









2026– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 45,1 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta’kidlash lozim.



# Otlar bosh soni

**bosh soni, bosh** | **Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi**




**Yuqori ulushga ega tumanlar**

| | |
|---|---|
| Peshku tumani | **14,2 %** |
| Romitan tumani | **19,0 %** |
| G‘ijduvon tumani | **13,0 %** |
| Jondor tumani | **12,5 %** |

**Past ulushga ega hududlar**

| | |
|---|---|
| **Buxoro shahar** | **0,8 %** |
| **Olot tumani** | **2,8 %** |
| **Kogon tumani** | **2,9 %** |
| **Vobkent tumani** | **4,3 %** |

2026– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 7 989,9 mingtaga yetdi.

2026– yil 1- aprel holati bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 507,7 mingtaga (6,8 %) ko‘paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Jami bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2026– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 40,4 % i qishloq xo‘jaligi tashkilotlariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.



## Parrandalar

**bosh soni, ming bosh** | **Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi**




| **Yuqori ulushga ega tumanlar** | |
|---|---|
| **Jondor tumani** | **27,6 %** |
| **G‘ijduvon tumani** | **13,8 %** |
| **Romitan tumani** | **10,1 %** |
| **Buxoro tumani** | **8,9 %** |

| **Past ulushga ega hududlar** | |
|---|---|
| **Peshku tumani** | **2,4 %** |
| **Buxoro shahar** | **2,0 %** |
| **Qorovulbozor tumani** | **3,2 %** |
| **Olot tumani** | **3,3 %** |

**Fermer xo‘jaliklari.** 2026-yil yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 470,9 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 9,8 foizni tashkil etdi.

2026-yil 1-aprel holatida fermer xo‘jaliklarida 117,8 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 41,2 ming bosh sigir, 426,4 ming bosh qo‘y va echkilar, 2 034,9 ming bosh parrandalar mavjud bo‘lib, 2026-yil 1-aprel holatiga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 3,1 foizga ko‘p, qo‘y va echkilar 5,6 foizga, parrandalar 6,0 foizga ko‘paygan.

**2026-yil yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari**

| | *2025-yil* | | *2026-yil* | | *o‘sish sur’ati,foiz* |
|---|---|---|---|---|---|
| | *tonna* | *ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz* | *tonna* | *ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz* | |
| Go‘sht, *tirik vaznda* | 3 671,0 | 6,8 | 3 932,3 | 7,0 | 107,1 |
| Sut | 18 252,0 | 8,3 | 19 671,1 | 8,6 | 107,8 |
| Tuxum, *ming dona* | 22 827,0 | 25,0 | 23 010,2 | 23,2 | 100,8 |
| Jun | 42,0 | 26,3 | 44,6 | 23,4 | 106,2 |
| Qorako‘l teri, *dona* | 28 624 | 16,7 | 29 972 | 16,8 | 104,7 |
| Ovlangan baliq | 253,1 | 30,3 | 285,8 | 31,4 | 112,9 |
| Sabzavot | 1 662,0 | 19,5 | 1 945,1 | 16,3 | 117,0 |

2026-yil yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan tirik vaznda 3 932,3 tonna go‘sht (2025-yil yanvar - martga nisbatan 7,1 foizga ko‘p), 19,7 ming tonna sut (7,8 foizga ko‘p), 23,0 mln.dona tuxum (0,8 foizga ko‘p), 44,6 tonna jun (6,2 foizga ko‘p), 30,0 ming dona qorako‘l teri (o‘tgan yilga nisbatan 4,7 foizga ko‘p) ishlab chiqarildi.

## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Dehqonchilik mahsuloti** – hisobot davrida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko‘p yillik yosh ko‘chatlarni o‘stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan yetishtirish qiymatlarining o‘zgarishi yig‘indisidir.

**Chorvachilik mahsuloti** – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o‘stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o‘z ichiga oladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

**Ovchilik** - ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va davolash harajatlari hisobga olinadi.

**O‘rmon xo‘jaligi** – o‘rmon va o‘rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o‘rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong‘inga qarshi dasturlarni ishlab chiqarish kiradi. O‘rmon xo‘jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag‘ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko‘chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o‘suvchi qo‘ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong‘oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

**Baliq xo‘jaligi** – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko‘paytirish va yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

**Qishloq xo‘jaligi ekinlarining yig‘ilgan yalpi hosili** qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer va dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida asosiy va takroriy, bog‘larning qator oralaridagi qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yig‘ib olingan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi.

**Fermer xo‘jaliklari** - ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta‘qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektidir.

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari** – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo ‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a’zolarining istagiga ko ‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida erga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo ‘jalik yurituvchi sub’ekt hisoblanadi.

**Mollar bosh soni** - xo‘jalik toifalari bo ‘yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

**Go‘sht yetishtirish** - so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

**Sut yetishtirish -** yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘shgan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilmaydi.

**Tuxum yetishtirish -** barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorda jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.

**Jun yetishtirish -** xo‘jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilganini qo ‘shgan holda, qo‘y, echki, tuyalardan haqiqatda qirqib olingan natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o‘z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo‘shiladi.